
DEHQONCHILIK XUSHYORLIKNI TALAB QILADI

Ayni kunlarda fermer xo'jaliklari dalalarida bohorgi ishlar qizg'in tus olgan. Fermerlar tomonidan boshqali don hamda ertangi sabzavot ekinlari parvarishi olib borilmoqda. Mevali bog'lar, atrof xududlarda ekilgan daraxtlarga ishlov berish, zararkunandalarga qarshi kurashish ham e'tiborni talab etadi.

Bu yilgi paxta xosili uchun chigit ekilgan va boshqa turdagi ekinlarni ekish ko'zlangan maydonlarda xosil uchun xavf solishi mumkin bo'lgan zararli xashorat hamda kasalliklardan xushyorlik talab qilinadi. Yerga ishlov berish va boshqa jarayonlarda kimoviy va biologik kurash vositalaridan samarali foydalanish zarur. Mutaxassislarning tavsiyalari shuni ko'rsatadiki, dalaga qo'yilgan Feremon tutqichlarga ildiz qurtlarining kapalaklari tushmoqda. MMTP rahbarlari va fermerlar tezlik bilan dalaga Feremon tutqichlarni qo'yish choralarini ko'rishlari va mashaqqatli mehnat va sarmoya evaziga yetishtirilayotgan xosilni zararkunandalardan saqlashlari zarur. Dehqonchilikda har bir dam g'animat.

B.Salimov

Agronom mutaxassis.
2023-04-10 07:17:24